
BUNYODKORLIK: MFYLAR UCHUN YANGI BINOLAR QURILMOQDA

Bugun yurtimizda mahalla instituti xalqchil tuzilma sifatida shakllanib, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardagi faol ishtiroki bilan jamiyatimiz hayotida mustahkam o'rin egallamoqda. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi sa'y-harakatlarga yangicha kuch bag'ishladi. Mazkur hujjatda mahalla institutini yanada rivojlantirish bilan bog'liq qator dolzarb vazifalar belgilab berilgan bo'lib, ayni chog'da uning ijrosi bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, farmon asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada yuksaltirish, fuqarolar yig'inlari idoralari binolarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash, ularni zarur mebel' jamlanmasi, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari va internet tarmoqlari bilan jihozlash ishlari izchil davom ettirilyapti.

Mahallalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ular faoliyatiga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, tumanimizdagi MFY idoralari uchun yangi binolar qurish, mavjudlarini ta'mirlash, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda tumanimizdagi bir qator mahalla fuqarolar yig'inlari, xususan, Abdullabayon, Polvonobod, Amirobod, Suxobod va Bujay MFYlarida davlat xususiy sherikchilik asosida MFY binolari qurilmokda. Ularning ayrimlar mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Kuni kecha tumanidagi "Nosgar", "Anxorbo'yi", "Jalaer" va "Guzar" maxalla fuqarolar yig'inlariga "Asakabank" AJ Farg'ona filiali xomiyligida kompyuter jamlamalari topshirildi.

2022-08-10 14:23:14